

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

KUDRATOV BEKZOD SHERZODOVICH

**METALLURGIYA SANOATI CHIQINDISI VA POLIFUNKSIONAL
QO‘SHIMCHA ASOSIDAGI KOMPLEKS MODIFIKATSIYALANGAN
BETON**

05.09.05 - Qurilish materiallari va buyumlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Kudratov Bekzod Sherzodovich

Metallurgiya sanoati chiqindisi va polifunksional qo'shimcha asosidagi kompleks
modifikatsiyalangan beton 3

Кудратов Бекзод Шерзодович

Комплексно-модифицированный бетон на основе отхода металлургического
производства и полифункциональной добавки 25

Kudratov Bekzod Sherzodovich

Complex-modified concrete based on metallurgical waste and a multifunctional
additive 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

KUDRATOV BEKZOD SHERZODOVICH

**METALLURGIYA SANOATI CHIQINDISI VA POLIFUNKSIONAL
QO‘SHIMCHA ASOSIDAGI KOMPLEKS MODIFIKATSIYALANGAN
BETON**

05.09.05 - Qurilish materiallari va buyumlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4766 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saytida (www.tstu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Kadirov Ilxom Abdullaevich**
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Xasanov Baxridin Baratovich**
texnika fanlari doktori, professor
Amirov Tursoat Jumaevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dosent

Yetakchi tashkilot: **Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'Ichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'Ichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil "___" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.I. Adilxodjaye
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor

U.Z. Shermuxamedov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor

A.A. Ishanxodjaye
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qurilish sanoatini rivojlantirishning hozirgi bosqichida ekologik toza texnologiyalardan foydalangan holda energiya sarfini sezilarli darajada kamaytirishga va an'anaviy qurilish materiallariga muqobil bo'lgan innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish eng muhim masalalardan hisoblanadi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda qurilish sifatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar tannarxi nisbatan arzon, ishlab chiqarish xarajatlari past, ekspluatatsion xossalariga ko'ra mavjud analoglardan afzal qurilish materiallarini qo'llash amalga oshirilmoqda. Shu bois, beton qorishmalari ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish hamda resurs va energiyatejamkor betonlarni ishlab chiqarish uchun tabiiy va texnogen xomashyolardan keng foydalanish, shuningdek, mahsulot sifatini oshirish uchun zamonaviy texnika-texnologiyalar va qo'shimchalarni qo'llash jarayonlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda qurilish sanoatida so'nggi yillarda kimyoviy va mineral modifikatorlar asosidagi kam energiya talab etuvchi texnologiyalarni rivojlantirishga va "kelajak betonini" ishlab chiqishga bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu innovatsion yondashuv ekologik xavfsizlik, iqtisodiy samaradorlik va resurslardan oqilona foydalanish kabi dolzarb muammolarni hal qilishni ta'minlamoqda. Shuningdek, bunday yondashuvni amalga oshirish qattiqlashuv bosqichining dastlabki davrlarida betonning mustahkamligini sezilarli (70% yoki undan yuqori) darajada yaxshilashi mumkinligi bo'yicha olib boriladigan tadqiqot ishlari ustuvor vazifa deb hisoblanmoqda. Shu munosabat bilan mahalliy xomashyo asosidagi kompleks modifikatorlardan foydalanish orqali konstruksiyalarni ishlab chiqarish uchun resurstejamkor qizdirilmaydigan yoki kam qizdiriladigan texnologiyalarga o'tish va talab etilgan xossalar majmuiga ega bo'lgan sement betonlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda qurilish sohasini modernizatsiyalash, ishlab chiqarish jarayonlarini texnik va texnologik yangilash, qurilish materiallarini tayyorlashda energiya va resurs sarfini kamaytirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi"da "...Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy yetish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning yenergiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari ko'rilsin..."¹ bo'yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, oldindan belgilangan xossalarga majmuiga ega bo'lgan qurilish materiallarini ishlab chiqarish, mahalliy xomashyo asosidagi qorishma tarkibini ishlab chiqish uchun mavjud texnologiyalarni yaratish va takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldagi PQ-4198-son "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-sonli "Qurilish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarorlari hamda 2020 yil 27 noyabrdagi PF-6119-sonli "O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi farmonlarida nazarda tutilgan va qurilish sanoati bilan bog‘liq boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sement tizimlarida material va energiya sarfini kamaytirish, betonni mineral moddalar va polifunksional kimyoviy qo‘shimchalar bilan modifikatsiyalash, shuningdek, ularning xossalarini yaxshilash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Turli xil qo‘shimchalar asosidagi ko‘p komponentli yuqori sifatli betonlarda qo‘llash asoslarini rivojlantirishga taniqli xorijiy olimlar V.I. Solomatov, G.I. Gorchakov, Yu.M. Bajenov, L.I. Dvorkin, P.G. Komoxov, A.V. Voljenskiy, Yu.M. Butt, I.A. Ribyev, B.V. Gusev, E. Freysine, A.A. Afanasev, N.B. Urev, S.M. Mchedlov-Petrosyan, V.G. Batrakov, V.N. Выговой, A.G. Komar, A.S. Panteleev, V.T. Yerofeev, V.I. Kalashnikov, V.I. Kondratenko, T.I. Petrova, S.V. Shestoporov, A.Ye. Sheykin, A.V. Sheynfeld, P.A. Rebinder, V.G. Batrakov, V.B. Ratinov, A.V. Ushero-Marshak, V.S. Ramachandran, B.R. Falikman, V.M. Kolbasov, S.M. Royak, V.V. Timashev, T.V. Kuznesova, M. Venyua, X. Teylor, M. Regur, M. Kollepari, R. Kondo, D. Roy, K. Xattorn, M. Daymon, R. Fere, G. Hintze, F. Loher, T. Thorvaldson, F.J. Hogan, L.U. Spellman, A. Walter, H. Uchikawa, Sh. Hanehara, F. Lallard, T.S. Do, A. Durecovic, S. Sarcar, I. Older, V. Yogendran, P. Aitchin, M. Cheurexu, E.G. Deharrard, V. Mechtherine, P.T. Santhosh, M. Schmidt, P. Kleingelhöfer, D. Frank, K. Fridemenn, P. Richard, M. Chentern, P.Y. Blais, C. Danrioc, A.S. Belardi, K.K. Sideris, E. Guneyisi, R. Flatt, R. Lewis, J. Plank, I. Schober, H. Okamura, K. Ozawa, K. Yamada, M. Fenollera, L. Garcia, P. Richard, G. Edward, M. Buil, A. Neville va boshqalar ulkan hissa qo‘shganlar.

O‘zbekiston Respublikasida turli yillarda ko‘p komponentli yuqori sifatli betonlar kompozitsiyalarni ishlab chiqish masalalari yuzasidan A.I. Odilxo‘jaev, A.A. To‘laganov, E.U. Qosimov, M.K. Taxirov, N.A. Samigov, B.B. Xasanov, V.M. Soy, I.M. Maxamataliev, K.S. Umarov va boshqa yetuk olimlar ilmiy izlanish olib borganlar.

Yuqorida keltirib o‘tilgan olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda yangi avlod betonlarini loyihalash, kimyoviy modifikatorlarning texnologik va fizik-mexanik xossalarga ta‘sir qilish mexanizmlarini o‘rganish, shuningdek, mineral mikroto‘ldirgichlarning sement tizimidagi gidratatsiya jarayoniga ta‘siri bilan bog‘liq masalalar batafsil ko‘rib chiqilgan.

Shu paytga qadar o‘tkazilgan tadqiqotlarda mineral moddalar va kimyoviy qo‘shimchalar asosida yuqori mustahkam, o‘ta yuqori sifatli va uzoqqa chidamli

betonlarni ishlab chiqish masalalari keng yoritilgan. Biroq, turli xil faollikdagi mineral modifikatorlarning bog‘lovchi va mikroto‘ldirgich orasidagi adgeziyasiga, shuningdek, sement tizimining ishqoriy muhitiga ta’siri masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Temirbeton buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish uchun kam qizdiriladigan va qizdirilmaydigan texnologiyalarga o‘tish hamda so‘nggi innovatsion yechimlar asosida ishlab chiqilgan nafaqat suv kamaytirilishi, balki qotish jarayoni intensivlashuvini ham ta’minlaydigan polifunksional kimyoviy qo‘shimchalarning sement tizimiga kompleks ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan. Bundan tashqari, kompleks modifikatorlarning po‘lat armatura korroziyasiga ta’siri, shuningdek, ko‘pkomponentli modifikasiyalangan bog‘lovchilarning agressiv muhitga chidamlilik masalalari ham yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Yuqorida keltirilgan mulohazalarni inobatga olgan holda, M400 oddiy portlandsementi, kelib chiqishi texnogen bo‘lgan past faol mikroto‘ldirgich, polifunksional qo‘shimcha asosidagi, fizik, mexanik va ekspluatasion xossalari yaxshilangan resurstejamkor kam qizdiriladigan va qizdirilmaydigan texnologiyalar yordamida temirbeton konstruksiyalari va buyumlarini olish uchun beton qorishmalari va betonlarni ishlab chiqish bo‘yicha kompleks tadqiqotlar o‘tkazish dolzarb vazifadir.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti ilmiy-tadqiqot ishi № ББ-Ф4-04 “Kompozision materiallarning polistrukturali nazariyasi asosida ko‘p komponentli yuqori sifatli betonlar tarkibini optimallashtirish va xossalarini bashorat qilish” (2018-2020) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi temirbeton konstruksiyalarini kam qizdiriladigan yoki qizdirilmaydigan texnologiyalari yordamida ishlab chiqarish uchun M400 portlandsementi, metallurgiya sanoati chiqindisi va polifunksional qo‘shimcha asosidagi talab etilgan xossalar majmuiga ega bo‘lgan yangi avlod beton qorishmalari va betonlari tarkibini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

mineral mikroto‘ldirgich va polifunksional kimyoviy qo‘shimchalar asosida modifikasiyalangan sement toshining fizik-mexanik xossalari va strukturasi o‘ziga xos shakllanish xususiyatlarini o‘rganish;

mineral mikroto‘ldirgich va polifunksional qo‘shimchalar yordamida beton qorishmasi va beton tarkibini optimallashtirish;

kompleks modifikator asosida qizdirilmaydigan va kam qizdiriladigan resurstejamkor texnologiyasi yordamida temirbeton konstruksiyalari va buyumlarini olish uchun beton qorishmalari va betonlarni ishlab chiqish imkoniyatlarini eksperimental ravishda o‘rganish;

kompleks modifikasiyalangan beton va beton qorishmasining texnologik, fizik-mexanik va kimyoviy xossalarini o‘rganish;

tadqiqot natijalarini texnik-iqtisodiy asoslash va ishlab chiqarishga joriy qilish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida kompleks qo'shimchalar asosida ishlab chiqilgan kam qizdiriladigan yoki qizdirilmaydigan resurstejamkor texnologiyalarda qo'llaniladigan modifikasiyalangan betonlar olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida mineral mikroto'ldirgich va polifunksional qo'shimchalar yordamida tayyorlangan optimal tarkibdagi betonlarning strukturasi va fizik-mexanik, kimyoviy va texnologik parametrlarini shakllantirish qonuniyatlarini o'rganish qabul qilingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan, kompleks modifikasiyalangan beton qorishmasi va betonlarning sifat ko'rsatkichlari va xossalarini o'rganishning standartlashtirilgan usullaridan hamda qorishma tarkibini optimallashtirishning matematik rejalashtirish usullaridan va eksperimentlar natijalarini statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba po'lat eritish shlaki va polifunksional qo'shimcha asosidagi kompleks modifikatorni qo'llash orqali temirbeton buyumlari va konstruksiyalarni ishlab chiqarish uchun kam qizdiriladigan yoki qizdirilmaydigan texnologiyalar uchun mo'ljallangan, talab etilgan xossalar majmuiga ega bo'lgan beton qorishmasi va beton tarkibi ishlab chiqilgan;

beton tarkibida past faollikka ega bo'lgan po'lat eritish shlakidan foydalanish ishqoriy muhitning zarur ko'rsatkichlarini shakllantirishga yordam berishi hisobiga kechki ettringitlarni shakllanishiga yo'l qo'ymasligi haqidagi gipoteza asoslangan va tasdiqlangan;

taklif etilayotgan polifunksional kimyoviy modifikatordan foydalanish sement tizimi strukturasi shakllanish jarayonini tezlashtirishi orqali issiqlik-namlik bilan ishlov berish jarayonida izotermik qizdirish haroratini sezilarli darajada pasaytirishi hisobiga temirbeton buyum va konstruksiyalarni kam qizdiriladigan texnologiyalari yordamida ishlab chiqarish isbotlangan.

kompleks modifikasiyalangan beton tarkibida po'lat eritish shlakining sement tizimining zarur ishqoriy ko'rsatkichlarini saqlashi hisobiga temirbeton konstruksiyalardagi po'lat armaturaning korroziyasiga ta'sir ko'rsatmasligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: polifunksional kimyoviy qo'shimcha, mineral mikroto'ldirgich va oddiy M400 markali portlandsement asosida monolit hamda yig'ma temirbeton buyum va konstruksiyalarni kam qizdiriladigan va qizdirilmaydigan texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish uchun beton qorishmasi va betonning optimal tarkiblari ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlar fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari va fizik-mexanik sinovlar, eksperimentlarni matematik rejalashtirish vositalari va usullari, eksperiment natijasida olingan xulosalarning nazariy qonuniyatlarga muvofiqligi, shuningdek, ishlab chiqarish sharoitida aprobasiyasidan o'tkazilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kam qizdiriladigan yoki qizdirilmaydigan texnologiyalar uchun sement tizimida mineral mikroto'ldirgich

va polifunksional kimyoviy qo‘shimchalar yordamida ishlab chiqilgan sement kompozitlarining strukturasi shakllantirish haqidagi tushunchalar kengaytirilgan. Ushbu natijalar beton texnologiyasi nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishda muhim o‘rin tutib, sement kompozitlarining xossalari va tuzilishiga oid bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy xomashyo asosida ishlab chiqilgan kompleks qo‘shimchadan foydalangan holda M400 markali portlandsementi asosida oldindan talab etilgan xossalar majmuiga ega yig‘ma temirbeton buyumlar va konstruksiyalarni ishlab chiqarish uchun kam qizdiriladigan va qizdirilmaydigan texnologiya uchun yaxshilangan ekspluatasion parametrlarga ega kompleks modifikasiyalangan beton tarkiblarini ishlab chiqarishga joriy etish bilan izohlanadi. Ushbu natijalar asosida ishlab chiqilgan kompyuter dasturlari betonning xossalarini oldindan bashorat qilish imkonini yaratadi hamda qurilishda samarali foydalanish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Metallurgiya sanoati chiqindisi va polifunksional qo‘shimcha asosidagi kompleks modifikasiyalangan betonni o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

B15 sinfidagi yig‘ma beton va temirbeton konstruksiyalarini ishlab chiqarish uchun kompleks qo‘shimchali optimal beton tarkibi "BINOKOR TEMIRBETON SERVIS" MCHJ QK ishlab chiqarish korxonasi amaliyotga joriy etilgan ("O‘zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining 2024 yil 27 avgustdagi 04/13-2412-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada sement sarfini 1,25 barobarga tejash, muzlashga bardoshlilikni 3 markaga va betonning suv o‘tkazmasligini ikki sinfga oshirish imkonini berdi;

ishlab chiqilgan texnologik yo‘riqnomasi "Технологическая инструкция ТИ64-23394177-90:2024 по производству бетонных блоков для стен подвалов по стандарту О‘z DSt 778-97, с использованием комплексно-модифицированного бетона на основе минерального наполнителя и полифункциональной добавки" "BINOKOR TEMIRBETON SERVIS" MCHJ QK ishlab chiqarish korxonasi amaliyotga joriy etilgan ("O‘zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining 2024 yil 27 avgustdagi 04/13-2412-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada olingan iqtisodiy samaradorlik qish mavsumida 1m³ beton uchun 118 243 so‘mni, yoz mavsumida esa 122 839 so‘mni tashkil etdi (2024 yil narxlarida). Kutilayotgan iqtisodiy samara 3000 ta blok uchun 296 mln. so‘mni tashkil qilgan (2024 yil narxlarida).

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Dissertasiyaning asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, ulardan 5 tasi xorijiy jurnallarda, shu jumladan 1 tasi SCOPUS bazasida, 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida chop etilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan 2 ta ixtiro, 1 ta foydali model uchun patentlar va kompyuter dasturlari uchun 2 ta guvohnoma olingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiyaning **kirish** qismida dissertasiya tadqiqotlarining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotlarning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertasiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning "**Muammoning holati va tadqiqot vazifalari**" deb nomlangan birinchi bobida sement tizimida moddiy va energiya xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, mineral modifikatorlar va polifunksional kimyoviy qo'shimchalar bilan beton strukturasi modifikatsiyalash sohasidagi tadqiqotlarning tahliliy sharhi keltirilgan. Ushbu bobda temirbeton konstruksiyalarni kam qizdiriladigan va qizdirilmaydigan ishlab chiqarish texnologiyalari uchun yuqori sifatli, o'ta mustahkam va uzoqqa chidamli betonlarni loyihalash bilan bog'liq vazifalar batafsil yoritib o'tilgan. Kimyoviy modifikatorlar va mineral mikroto'ldirgichlarning sement tizimi texnologik, fizik-kimyoviy va fizik-mexanik xossalari ta'sir qilish mexanizmlari keltirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasida beton texnologiyasida turli xil yuqori faol mineral moddalar, jumladan, kul uchqindisi, giltuproq, elektrotermofosfor shlaklari, bazalt, barxan qumlari, mis sanoati chiqindilari, seolit tog' jinsi va boshqalardan foydalanilgan. Ushbu materiallar beton qorishmasining xossalari bo'lgan ijobiy ta'siri va turli ishlab chiqarish sharoitlariga moslashuvchanligi tufayli keng qo'llaniladi. Turli yillarda o'tkazilgan bir qator tadqiqotlar ko'rsatishicha, ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va resurstejamkorlik talablariga javob beradigan "yashil beton" konsepsiyasini amalga oshirish uchun kremniy tarkibli sanoat chiqindilaridan foydalanishga e'tibor qaratish katta ahamiyat kasb etadi. Biroq yuqori faol mikroto'ldirgichlardan foydalanish salbiy oqibatlariga olib kelishi, masalan, kechki ettringitning shakllanishi va po'lat armaturaning korroziyasini yuzaga keltirishi mumkinligini yodda tutish kerak. Bu turdagi hodisalar sement tizimi ishqoriy muhitining kuchsizlanishi bilan bog'liq bo'lib, portlanditning yuqori reaktiv kremniy dioksidi bilan bog'lanishi tufayli ro'y beradi. Kechki ettringitning shakllanishi sement betonining sulfatga chidamliligi pasayishiga olib keladi va pH muhitning qiymatining kamayishi betonning karbonlashuv korroziyasini tezlashtirib, bu esa o'z navbatida armatura korroziyasini keltirib chiqaradi. Ushbu salbiy ta'sirlarni kalsiy gidroksidni to'liq bog'lamaydigan va qisman kolmatasiya xususiyatiga ega bo'lgan past faol mikroto'ldirgichlardan foydalangan holda bartaraf qilish mumkin. Ushbu mineral moddalar yuqori faollikka ega qo'shimchalarga qaraganda sement tizimiga salbiy ta'sirini kamaytirishga yordam beradi, shu bilan birga kerakli ishqoriy muhitni saqlaydi va kechki ettringitlarning shakllanishiga to'sqinlik qilib, shuningdek, po'lat armaturaning korroziya xavfini kamaytiradi. O'zbekiston Respublikasida katta hajmda to'plangan po'lat ishlab chiqarish sanoati chiqindilari kam faolligi

bilan farqlanib turadi va ulardan yuqorida keltirilgan vazifalarni hal qilishda samarali foydalanish mumkin. Bundan tashqari, kam qizdiriladigan va qizdirilmaydigan beton texnologiyalariga o'tish hozirgi paytda dolzarb masalaga aylangan. Birinchi bobda keltirilgan adabiyotlarning tahlili ko'rsatishicha, elektrolit qo'shimchalarni qo'llash resurstejamkor beton texnologiyalariga o'tishning eng maqbul yo'llaridan bo'lib hisoblanadi. Ammo ta'kidlash joizki, elektrolitlar metall korroziyasiga olib kelishi mumkin va ularni sirt faol moddalar bilan birga qo'llash beton ishlab chiqarish texnologiyasining anchagina murakkablashuviga olib keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish lozimki, ushbu muammolarni samarali hal qilishda polifunksional qo'shimchalardan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Adabiyotlar sharhida keltirilgan mulohazalar asosida dissertasiya ishining ishchi gipotezasi shakllantirildi, shuningdek, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilandi.

Ishchi gipoteza: Kompleks modifikatsiyalangan sement tizimida yuzaga keladigan fizik va kimyoviy o'zaro ta'sirlar haqidagi zamonaviy tasavvurlarga asoslanib, po'lat sanoatida hosil bo'ladigan past faol chiqindilar yangi birikmalarni hosil qilishi evaziga sement kompozitsiyasining mustahkamligini oshirishi va kolmatasiya xususiyati hisobiga uning o'tkazuvchanligini pasaytiruvchi hamda talab etilgan ishqoriy muhit qiymatini ta'minlovchi qo'shimcha sifatida, superplastifikator va qattiqlashuv jarayonini jadallashtiruvchi vazifasini bajaradigan polifunksional kimyoviy qo'shimcha esa temirbeton buyumlar va konstruksiyalarni ishlab chiqarish uchun kam qizdiriladigan va qizdirilmaydigan texnologiyalar uchun ekspluatatsion xossalari yaxshilangan betonlar ishlab chiqarish mumkin deb faraz qilinadi.

"Tadqiqot usullari va foydalanilgan materiallar" deb nomlangan dissertatsiyasining ikkinchi bobida eksperimental tadqiqotlarda qo'llanilgan materiallarning fizik-mexanik va kimyoviy xossalari keltirilgan. Shuningdek, ushbu bobda laboratoriya jihozlarining texnik xususiyatlari ham keltirilgan bo'lib, kompleks qo'shimcha yordamida modifikatsiyalangan yuqori mustahkam, yuqori sifatli va uzoqqa chidamli betonlarni o'rganish bo'yicha uslubiy yondashuvlar batafsil tavsiflangan.

Tadqiqotlarda bog'lovchi sifatida "Ohangaronsement" zavodining CEMI 32,5 portlandsementidan, mineral mikroto'ldirgich sifatida, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ Quyuv mexanika zavodining po'lat ishlab chiqarish sanoatida hosil bo'luvchi chiqindilaridan, kimyoviy qo'shimchalar sifatida, ARMENT CONSTRUCTION CHEMICALS tomonidan ishlab chiqariladigan polikarboksilat efirlari va ammiakli suv asosidagi POLIMIXJBI yuqori samarali yangi avlod polifunksional kimyoviy qo'shimchasidan foydalanilgan.

Tadqiqotda standartlashtirilgan usullardan tashqari, fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari, shuningdek, etakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot institutlari mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan nostandart usullar qo'llanilgan. PESH ni maydalash jarayoni IIIJIM-100 markali laboratoriya sharli tegirmoni yordamida amalga oshirilgan. Mineral moddaning dispersligi Kozeni-Karman havo o'tkazuvchanligi usuliga asoslangan ПСХ-11А qurilmasida aniqlangan. ВКА

qurilmasida qotish vaqti va sement pastasining normal quyuqligi o'rganilgan. Mineral qo'shimchali va qo'shimchalarsiz sement suspenziyalarining ishqoriy muhiti pH metr yordamida baholangan. Kompleks qo'shimchali sement tizimlarining g'ovak tuzilishini tadqiq etishda Thermo Scientific seriyasidagi Pascal 240 EVO simob porometriyasi usuli qo'llanilgan. Sement kompozitsiyalarining tuzilishini o'rganish va shakllanayotgan sement toshining tuzilishini baholash differensial termik va rentgen fazali tahlillar asosida amalga oshirildi. Bundan tashqari, tadqiqotlarda beton qorishmalari tarkibini optimallashtirish uchun tajribalarni rejalashtirishning matematik usuli qo'llanilgan.

Dissertatsiyaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tadqiqot usullari asoslandi va tanlanadi. Tadqiqotlarda qurilish materiallarini sinashning standart usullari, shuningdek, matematik regressiya va matematik statistik usullaridan foydalanilgan. Bundan tashqari, tadqiqotda beton qorishmalari tarkibini optimallashtirish uchun tajribalarni rejalashtirishning matematik usuli qo'llanilgan: "Metallurgiya sanoatining qolip shlaklarining nisbiy sirt yuzasini hisoblashning avtomatlashtirilgan dasturi" va "Metallurgiya shlaklarining nisbiy sirt yuzasini hisoblashning avtomatlashtirilgan dasturi".

Dissertatsiyaning **"Polifunksional modifikator va mineral qo'shimchaning sement toshining tuzilishi va xossalariga ta'siri"** nomli uchinchi bobi polifunksional qo'shimchalar (PFQ) va po'lat eritish shlaki (PESH) asosidagi kompleks modifikator yordamida sement bog'lovchilarining tuzilishi va xossalarini ishlab chiqish va optimallashtirishga qaratilgan eksperimental tadqiqotlar natijalariga bag'ishlangan. Ushbu bobda PESH ni mexanik faollashtirish, sement xamiri suv talabligi va kompleks modifikatsiyalangan sement pastalarining qotish vaqti, shuningdek, qo'shimchalarning ishqoriy muhitga ta'siri, issiqlik ajralish jarayonlari va modifikatsiyalangan qorishmalarning qattiqlashuv kinetikasi masalalari keltirib o'tilgan. Ishlab chiqilgan kompozitning strukturasi shakllanish jarayonlariga va uning boshqa xossalariga alohida e'tibor qaratilgan.


Sement ishlab chiqarishning asosiy texnologik bosqichlaridan biri va har xil turdagi xom ashyoni texnik mahsulotlarga aylantirish mexanik faollashtirish jarayoni yordamida amalga oshiriladi. Mexanik faollashtirish – mexanik ta'sir asosida amalga oshiriladigan qattiq moddalarning modifikatsiyalashuvidir. Disperslash jarayonida, material granulometrik tarkibining o'zgarishi, faol markazlar sonining ortishi, zarrachalarning shakli va relefining modifikatsiyalashuvi, nisbiy sirt yuzasining kattalashuvi va kristall strukturaning amorf ko'rinishga o'tishi bilan tavsiflanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu bobda PESH ning mexanik faollashuvi bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

PESH ni maydalashga doir tajriba (eksperiment) natijalari 1-rasmda berilgan.


Mexanik faollashtirish jarayoni davomida nisbiy sirt yuzasining o'zgarishi bo'yicha olingan natijalar, PESH ni sharli tegirmonining zarbli-edirilish rejimida 80 daqiqa davomida maydalash $3511 \text{ sm}^2/\text{g}$ nisbiy sirt yuzasi qiymatiga erishish imkonini berishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, jarayon davomida PESH zarralarining o'rtacha diametri 15,7 mikrondan 5,8 mikrongacha kichraydi. PESH lar mexanik faollashuvining 70-daqiqasida zarrachalarning agregatsiyasi kuzatildi

(1-rasm, V). Maydalangan kukunni 008-raqamli elakdagi qoldig'i dastlabki 40 daqiqada 68,5% dan 24,2% gacha kamaydi va bu ko'rsatkich 70-daqiqagacha o'zgarishsiz qoldi va keyingi maydalash jarayoni agregasiya hodisasining ro'y berishi tufayli samarasiz hisoblanadi.




Yangi maydalangan minerallarni saqlash jarayonida suv molekularining adsorbsiyasi tufayli faol markazlar konsentrsiyalashuvi kamayadi. Yuqori namlik natijasida bu jarayon quyidagicha sodir bo'ladi: mikroto'ldirgich yuzasida suv molekulari sirt markazlari bilan vodorod bog'lamlarini hosil qiluvchi proton va gidroksil komponentlariga bo'linadi. O'zaro ta'sirlashuv o'z ichiga H⁺ va OH⁻ ionlarini, shuningdek, H va OH radikallari egallanishini olishi mumkin. Havodan kislorod va azotning adsorbsiyasi mineral kukun faol markazlarini O₂ va N₂ molekulari bilan "to'lib ketishi" tufayli faolligining o'zgarishiga ham ta'sir qiladi.

Sement toshi mustahkamlik xossalari shakllanishiga PESH asosidagi mineral moddalarining nisbiy sirt yuzasi va to'ldirish darajasining ta'siri tadqiqotning muhim jihatlaridan hisoblanadi. Ushbu masalani o'rganish uchun suv-sement nisbati S/S = 0,45 ni tashkil etgan mayda donador beton namunalari tayyorlandi. Tajribalar PESH ning nisbiy sirt yuzasi (1000, 2000, 3000, 4000 sm²/g) va to'ldirish darajalarining (5%, 10%, 15%, 20%, 25%, 30%, 35%, 40%) turli qiymatlari bilan o'tkazildi.



3-rasm. PESH nisbiy sirt yuzasi va to'ldirish darajasining mayda donador betonning siqilishga mustahkamligiga ta'siri




4-rasm. PESH nisbiy sirt yuzasi va to'ldirish darajasining mayda donador betonning egilishga mustahkamligiga ta'siri

Namunalar 4x4x16 sm o'lchamli modifikatsiyalangan mayda donador betondan tayyorlandi. Eksperimental ma'lumotlarga statistika ishlovi berilganidan so'ng, 2- va 3-rasmda ko'rsatilgan grafiklar olindi.

2- va 3-rasmda ko'rsatilgan natijalar tahlili ko'rsatishicha, mayda donador betonning siqilishga va egilishga mustahkamligi PESH bilan to'ldirish darajasi va kukunning dispersligi oshishi bilan monoton tarzda ortdi va nisbiy sirt yuzasi 3000 sm²/g va to'ldirish darajasi bog'lovchi massasidan 25% ni tashkil etganida ekstremum ko'rsatkich qayd etildi. To'ldirish darajasining 25% dan ortishi sement bog'lovchisining ortiqcha "suyultirilishi" hisobiga kompozit mustahkamlik xossalari yomonlashuviga olib keldi. Disperslikning 3000 sm²/g dan ortishi mexanik faollashtirish jarayoni tadqiqida (1-rasmda (V)) keltirilganidek kukunning sirt qutblanishi natijasida yuzaga keladigan zarrachalarning agregatsiyasi tufayli mexanik xossalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqotning maqsadida keltirilgan resurstejamkor kam qizdiriladigan va qizdirilmaydigan texnologiyalarga o'tishni ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblangan PFQ va PESH asosidagi kompleks qo'shimchani sement ekzotermiyasiga (issiqlik ajralishi) ta'sirini baholash zarur masalalardan biridir. Ekzotermik qizdirishdan foydalanish energiya sarfini jiddiy kamaytirishi mumkin bo'lib, shu bilan birga yig'ma temirbeton mahsulotlarni ishlab chiqarishda ham, monolit usulida qurilishni tashkillashtirishda ham beton qotishini tezlashtiradi (4-rasm).

Bizning holatda, turli xil modifikatsiyalangan sement kompozitsiyalarining sement hamirining ekzotermiyasiga ta'sirini solishtirish maqsadga muvofiq. Tadqiqotda quyidagi tarkiblar qo'llanilgan: 1. PS asosidagi etalon tarkib; 2. PS+POLIMIX; 3. PS+POLIMIXJBI; 4. PS+POLIMIX+PESH (25%); 5. PS+POLIMIXJBI+PESH (25%).



4-rasm. Tadqiq etilayotgan tarkiblar haroratining o'zgarish kinetikasi
 ((1-etalon; 2-PS+POLIMIX;
 3-PS+POLIMIXJBI;
 4-PS+POLIMIX+PESH (25%);
 5-PS+POLIMIXJBI+PESH (25%))

4-rasmda keltirilgan ma'lumotlar tahlili ko'rsatishicha, kimyoviy qo'shimchalar (superplastifikator va polifunksional qo'shimcha) dastlabki bosqichda sementning gidratasiyalash jarayonini sezilarli sekinlashtiradi. Buning sababi – qo'shimcha molekulalar bog'lovchi zarrachalarining yuzalarini qisman "blokirovkalashi" va ularning suv bilan reaksiyasini qiyinlashtirishi bilan bog'liq. PFQ va PESH yordamida modifikatsiyalangan tarkiblarning qotish jarayonida haroratga bog'liqligini taqqoslash, 1 va 2- tarkiblarning ekzotermiyasi 4°C va 4-tarkibga nisbatan 9°C ortganini ko'rsatdi. Bunga PFQ tarkibidagi ammiakli suv sement zarralarining eruvchanligini oshiradi, bu esa haroratning ko'tarilishiga olib kelishi sabab bo'ladi.


Sement bog'lovchisi strukturasi shakllanishining kristall-koagulyasion davri sement toshining kristalli strukturasi dastlabki shakllanish va rivojlanish bosqichi bo'lib, u suv bilan qorishganidan so'ng boshlanadi va barqaror kristall matrisa hosil bo'lguncha davom etadi. Ushbu bosqichda suvli fazaning to'yinishi va kalsiy gidrosilikat (C-S-H) kristallarining shakllanishi, shuningdek, sement toshining mustahkamlanishi va barqarorlashuviga ko'maklashadigan zarrachalarning koagulyasiyasi ro'y beradi. Ushbu davr mustahkam sement bog'lovchisi tuzilishini va uning fizik-mexanik xossalarini shakllantirish uchun juda muhim. Qo'shimchalar va modifikatorlar strukturaning shakllanish tezligi va sifatini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin bo'lib, bu materialning ekspluatasion xossalariga ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu jarayonlarning davomiyligini o'rganish uchun turli xil qo'shimchalar va uning alohida tarkibiy qismlari bo'lgan sement tizimi plastik mustahkamlikning o'sish kinetikasiga ta'siri (5-rasm) va vaqt mobaynida sement toshining siqilishga bo'lgan mustahkamligining o'zgarishi (6-rasm) baholandi. Plastik mustahkamlikni baholash konusni botirish paytida aniqlangan chegaraviy siljish kuchlanishi asosida amalga oshirildi.


Tadqiqotda quyidagi tarkiblar qo'llanilgan: 1. PS asosidagi etalon tarkib; 2. PS+POLIMIX; 3. PS+POLIMIXJBI; 4. PS+POLIMIX+PESH (25%); 5. PS+POLIMIXJBI+PESH (25%).

5-rasmda keltirilgan ma'lumotlar POLIMIX superplastifikatori (2- va 4-tarkiblar) qo'llanilgan tarkiblarda induksion qotish davri davomiyligini 160-190 daqiqaga oshirishini ko'rsatdi. Bu sement zarralari yuzasida plyonka hosil bo'lishi

bilan bog'liq bo'lib, u suvning adsorbsiyasini vaqtincha cheklaydi va gidroliz jarayonini sekinlashtiradi. Vaqt o'tishi bilan plyonka ishqorli muhit qiymatining oshishi tufayli eriydi va tizim strukturasi intensiv shakllanish bosqichi boshlanadi. 3 va 5-tarkiblarda qattiqlashuv jarayonining tezlashishi kuzatildi. PFQ dan foydalanish induksion davrini 2-tarkibga nisbatan 160 dan 60 daqiqagacha kamaytirdi. PFQ sement va suv o'rtasidagi reaksiyani faollashtirish orqali qattiqlashuv davrini intensivlashtirsa, bu erda modifikatorlar katalizator sifatida gidratlarning shakllanishini tezlashtiradi.



5-rasm. Tadqiq qilinayotgan tarkiblarning plastik mustahkamligini ortish kinetikasi ((1-etalon; 2-PS+POLIMIX; 3-PS+POLIMIXJBI; 4-PS+POLIMIX+PESH (25%); 5-PS+POLIMIXJBI+PESH (25%))





6-rasm. Tadqiq qilinayotgan tarkiblarning mustahkamligining ortish kinetikasi ((1-etalon; 2-PS+POLIMIX; 3-PS+POLIMIXJBI; 4-PS+POLIMIX+PESH (25%); 5-PS+POLIMIXJBI+PESH (25%))

6-rasmni tahlili, POLIMIX superplastifikatori qattiqlashuvning dastlabki bosqichida sement toshining mustahkamligini o'sishini sekinlashtiradi, ammo yuqori suvni kamaytirish xususiyati tufayli keyingi davrlarda uni faollashtirishi aniqlandi. PFQ va PESH ning kiritilishi dastlabki davrda etalon tarkibi bilan taqqoslaganda mustahkamlikni 59-61% ga, 2 va 4-tarkiblar bilan qiyoslaganda esa 8-10% ga oshirdi. PFQ bilan modifikatsiyalangan tarkiblar 1 kunlik va 28 kunlik muddatda ham eng yuqori mustahkamlik ko'rsatkichlarini namoyish etib, bu esa kam qizdiriladigan va qizdirilmaydigan beton texnologiyasiga o'tish uchun muhim omil hisoblanadi.

Kompleks qo'shimcha bilan modifikatsiyalangan sement toshi mustahkamligining ortishi sabablarini qo'shimcha tahlil qilishni talab qiladi. Shu maqsadda, 28 kun davomida optimal sharoitlarda saqlangan sement toshi namunalarining differensial termik (7-rasm) va rentgenstrukturaviy tadqiq qilish (8-rasm) bo'yicha izlanishlar olib borildi. Tajribalar turli xil qo'shimchalar, shu jumladan KU va past faollikdagi PESH bilan modifikatsiyalangan tarkiblarning qattiqlashuvning kechki bosqichlarida ettringit fazalarini o'rganishni ham o'z ichiga olgan. Tadqiqotda quyidagi tarkiblardan foydalanilgan: 1. PS asosidagi etalon tarkib; 2. PS+KU (30%); 3. PS+PESH (25%).

7-rasmni tahlili sement tarkibiga amorf silikatning kiritilishi qizdirish vaqtida parchalanadigan Ca(OH)_2 miqdorining sezilarli darajada pasayishiga olib keldi va

klinker sementning gidrasiya jarayonida amorf kremniyning ta'siri tufayli yangi birikmalar hosil bo'lishiga sabab bo'lishini ko'rsatdi. Kalsiy gidroksidi miqdorining eng katta pasayishi KU bilan modifikatsiyalangan tarkibda kuzatilib, bu Ca(OH)_2 ning amorf SiO_2 bilan faol o'zaro ta'sirlashuvi bilan bog'liq.



Diffraktogrammalarning tahlili amorf silikat qo'shimchalari Ca(OH)_2 intensivligini kamaytirishini ko'rsatdi. Nazorat namunasida (9a-rasm), Ca(OH)_2 ning miqdori ~29,3% ni, 3-tarkibda esa ~ 23,7% ni tashkil qildi. KU bilan modifikatsiyalangan tarkiblarda ishqorlilikning pasayishi va gidrosulfoaluminat minerallarining shakllanishi tufayli ettringit fazasining 5,8% dan 6,6% gacha o'sishi kuzatildi. Ushbu tendensiya modifikatsiyalangan tarkiblarda Ca(OH)_2

miqdorining etalonga nisbatan kamayishidan iborat bo'lib, ammo KU bilan modifikasiyalangan kompozitsiyalarda bog'langan gidrooksid kalsiy miqdori PESH bilan tayyorlangan namunalarga nisbatan bir muncha yuqori ekanligi aniqlandi.

Bizning fikrimizcha, bu kamchilik hisoblanmaydi, chunki $\text{Ca}(\text{OH})_2$ ning to'liq bog'lanmaganligi sement toshining ishqorlilik darajasining u qadar pasayishiga olib kelmaydi va natijada betonning po'lat armaturaga nisbatan himoya xossalari ta'minlanadi. Bundan tashqari, g'ovak suyuqligining zarur ishqorlilik darajasini saqlab turishi kompozitning sulfat va karbonlashuv korroziyasiga bardoshlilikini oshirishga yordam beradi.

Dissertasiyaning "**Kompleks qo'shimcha asosidagi beton qorishmasi va betonning texnologiyasi va xossalari**" deb nomlangan to'rtinchi bobida beton qorishmasi va beton xossalariga texnologik omillarning ta'sirini o'rganish natijalari keltirilgan. Kompleks qo'shimchali tarkiblar optimallashtirilib, modifikasiyalangan tarkiblar g'ovakliligi, qo'shimchalarning po'lat armatura korroziyasiga ta'siri, shuningdek, modifikasiyalangan betonlarning fizik-mexanik, deformatsion xossalari o'rganildi.

O'zbekiston Respublikasida monolit va yig'ma temirbeton buyumlar hamda konstruksiyalarni ishlab chiqarish uchun asosan M400 oddiy portlandsementi asosidagi B15 va B30 sinfidagi betonlar ishlatiladi. Tadqiqot uchun qabul qilingan xom ashyolardan beton namunalari tayyorlandi va ularni optimallashtirish EXCEL dasturi yordamida amalga oshirildi (1- va 2-jadval).

1-jadval

Betonning nazorat tarkiblari

Beton sinfi	Konusning cho'kishi (sm)	1 m ³ uchun sarflangan materiallar (kg)					
		Sement	Qum M _y =2,5	Chaqiqtoş Fr. 10-20	Suv	Suv/Sem	Q/Ch
		kg	kg	kg	l	-	-
B15	P1 (1-4)	268	809	1100	190	0,7	0,92
B30	P1 (1-4)	441	672	1100	190	0,43	0,61

2-jadval

Kompleks qo'shimcha asosida optimallashtirilgan o'zi zichlashuvchan beton tarkiblari

Beton sinfi	Konusning cho'kishi (sm)	1 m ³ uchun sarflangan materiallar (kg)							
		Sement	Qum M _y =2,5	Chaqiqtoş Fr. 10-20	Suv	PESH	PFD	Suv/Sem	Q/Ch
		kg	kg	kg	l	kg	kg	-	-
B15	P4 (16-20)	202	809	1100	190	68	0,85	0,7	0,73
B30	P4 (16-20)	331	672	1100	190	110	1,4	0,43	0,61

